

**LALMIKOR YERLARDA NO`XAT YETISHTIRISH VA UNING FOYDALI  
XUSUSIYATLARI**

*Qurbanova Mahliyo Komil qizi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Yoqubova Shodiyaxon Xusan qizi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Doniyorova Shaxnoza Olimjon qizi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda inson ehtiyojlarini iqtisodiy barqarorligi, qishloq xo`jaligini modernizatsiya qilish tuproq unumdoorligini va ekinlar hosildorligini oshirish, yangi va xaridorgir maxsulotlar yetishtirish orqali jahon bozoriga chiqishning yangi yo`nalishlarini joriy etish, insonlar salomatligini yaxshilash, immun tizimini oshirish maqsadida tabiiy mahsulotlarga talab oshib bormoqda. Bu esa o`z- o`zidan foydali xususiyatlarga ega bo`lgan o`simliklarni yetishtirish va yanada foydalanish samaradorligini oshirish bo`yicha ko`plab ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishga turki bo`lmoqda. Ushbu maqolada” No`xat o`simligini lalmikor yerlarda yetishtirish va uning foydali xususiyatlari” keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Febacea, Cicer arietinum, kultivatsiya, no’xat, ekish me’yori, ekish muddati, no’xat navlari, oqsil.

**Annotation:** Economic sustainability of human needs, the modernisation of the village farm increasing soil fertility and crop yields to organize a direction to the world market in growing the new and saleable goods are arranging for the improvement of human helth. Demand for natural products to improve the immune system of the humanity. To grow and using it requires the plants which have the useful features in accordance of carring out the new researches in this field. In this article it is deseribed “Pea plant cultivation in arable lands and its useful properties”.

**Key words:** Febacea, Cicerarietinum, cultivation, chicpea, planting norm, sowing time, peasvarieties, protein.

Hozirgi kunda inson ehtiyojlarini iqtisodiy barqarorligi, qishloq xo`jaligini modernizatsiya qilish tuproq unumdoorligini va ekinlar hosildorligini oshirish, yangi va xaridorgi mahsulotlar yetishtirish orqali jahon bozoriga chiqishning yangi yo`nalishlarini joriy etish, insonlar salomatligini yaxshilash, immun tizimini oshirish maqsadida tabiiy mahsulotlarga talab oshib bormoqda.

No’xat ana shunday talabga javob beradigan ekin bo’lib u dehqonchilikda uchta asosiy vazifani hal etib, o’simlik oqsili masalasini, don yetishtirishni ko‘paytirish va tuproq unumdoorligini oshirishni hal etishga yordam beradi va ekologik toza

mahsulotlar beradi.O’simlik oqsili odam organizmini tarkibida zarur aminokislotalar bo’lgan oqsillar bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Hayvon mahsuloti oqsillarini iste’mol qilish esa fiziologik normalarga to’liq javob bermaydi. Shu bilan birga ularni ishlab chiqarishni ko’paytirish dastavval yem-xashak bazasining holatiga bog’liq.

No’xat urug’ida odam va hayvonlar uchun zarur barcha aminokislotalar (lizin, metionin, triptofan va boshqalar) bo’ladi. Ular yetishmay qolganda, organizm oqsilning faqat bir qismini o’zlashtiradi, qolgan qismi esa energiya materiali bo’lib xizmat qiladi. Doni tarkibida 19-33% oqsil, 4-8% moy, 0,2-4% kul, 48-61% azotsiz moddalar, 2-12% klechatka, vitaminlar va aminokislotalar mavjud.

No’xat (Cicer) – Dukkakli(Febecea) oilasiga mansub bir yillik hamda ko’p yillik turlari bo’lib asosan ko’p yillik turlari Yevrosiyo, shimoliy va sharqiy Afrikada uchraydi. Kelib chiqqan vatani ma’lum emas. Uning vatani Tojikiston, Avg`oniston va Pokistonning tog`li hududlari hamda yaqin sharq mamlakatlari deb hisoblaydilar. No’xat (Cicer)ni bir yillik madaniy turi (Cicerarietinum) Hindiston, Italiya, O’rta Osyio, Misr, Jazoir, Turkiyava Eronda ekiladi. Yurtimizda u asosan 1700- 2200 metr balandlikgacha bo’lgan lalmi yerlarga ekiladi [3].

Madaniy no’xatning ildizi-o’qildiz (100-150 sm). Poyasi o’tsimon, tik o’sadi, g`adir-budur, sershox, tukli, balandligi lalmikor yerlarda 30-45 sm bo’ladi. Barglari murakkab, toqpatsimon, murakkab barglarda 11-17 ta bargchalar bo’lib, barglarini cheti tishchali bo’ladi.

Gullari ikki jinsli kapalaksimon, qiyshiq gullar turiga kiradi. Rangi oq, sariq, yashil, ko`kintir va och pushti rangli bo’ladi.

Mevasi - dukak, dukkagida 1-2 tadan don bo’ladi. Boshqa dukkakli ekinlarga nisbatan qurg`oqchilikga sho`rga chidamli, urug’i 3-5°C da unib chiqqa boshlaydi [2].

Havo harorati 3-5°C dan pasayganda maysalar 3-4 haftadan so`ng unib chiqadi, ammo maysalari siyrak chiqadi, chunki ekilgan urug`larning bir qismi chirib ketadi. Harorat 10-12°C bo`lganda maysalar 5-6 kundan keyin paydo bo’ladi. Yurtimizda lalmikor yerlarda bahorda maysalari -6°Cdan -10°Cgacha qorasovuqlarga chidaydi. Biroq uni gullah va meva tugush davrida havo harorati 20°Cdan pasaymasligi kerak. Namlik meyordan ortiq bo’lsa kasallanadi, yaxshi changlanmaydi va shona hamda gullarini to`kib yuboradi. Shunindek, o’suv davrida yog`ingarchilikning ko’p bo`lishi askaxitoz kassaligini keltirib chiqishiga sabab bo’ladi. O’zbekistonda no’xatning o’suv davri uning naviga, ekish muddatiga va qaysi hududda ekilishiga qarab 60-90 kun bo’ladi. No’xat o’z-o’zidan changlanadigan o’simlik [1].

**No’xat agrotexnikasi:** No’xat O’zbekistonning lalmikor yerlariga ko`pincha bug`doy va arpadan keyin ekiladi. Shuning uchun no’xat ekiladigan yerni ishslash g`alla ekinlari ang`izini yuza yumshatishdan boshlanadi. 3-4 haftadan so`ng kuzda dalalar 22-25 sm chuqurlikda shudgorlanadi. Yer chuqurroq haydalganda u mo`l hosil beradi.

Bahorda shudgor barana qilinadi, ekishdan oldin esa baranalash bilan birga 5-6 sm, tog`li hududlardagi lalmikor yerlarda 10-15 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinadi.

**O'g'itlash.** No`xat ekiladigan yerga fosforli va kalyqli o'g'itlar solish foydalidir, ular kuzda yerni shudgorlashdan oldin yerga 45-50 kg sof modda hisobida solinadi. No`xat o'simligi azot to'plovchi o'simlik bo'lsada unga ekish bilan birga azotli o'g'itlar berilsa hosildorlik oshadi. Kuchsiz yerlarga bahorda yerni ishslashdan oldin gektariga 45-50 kg dan sof holda azot solish kerak. Nitraginni qo'llash ham no`xat hosilini oshiradi. No`xat uchun maxsus nitragin tayyorlanadi. Ekish oldidan 0,5 1 nitraginni 3-4 1 suvga aralashtiriladi va no`xat urug`iga purkaladi. Bu suyuqlik urug'likka salqin joyda purkaladi yani suspensiya qilinadi. Respublikamizning lalimikor yerlariga gektariga sof holda 35-50 kg azot solinganda no`xatning hosili 25% gacha oshadi.

**Ekish muddati:** No`xat urug`i unayotganda suvni ko`p shimib oladi, shuning uchun uni erta muddatda nam tuproqqa ekiladi. Lalmikor yerlarda asosan fevral va mart oylarida, baland tog` etaklaridagi lalmikor yerlarga esa aprelning bиринчи yarimidan ekish lozim. Qishga yaqin noyabr, dekabrda ekilgan no`xat ko`pincha askaxitoz kasalligi bilan kuchli zararlanishi mumkin. Shuning uchun kuzda sovuqqa, askaxitoz kasalligiga chidamli navlarini ekish lozim. Nafaqat kuzda bahorda ekilgan no`xat navlarining ham aksariyati bahor seryog'in kelganda askaxitoz kasalligi bilan zararlanadi. Buning oldini olish uchun avvalo kasallikka chidamli navlarni ekish lozim. Agar kasallik tarqalgani ma'lum bo`lsa katta maydonga tarqalib ketmasligi uchun zudlik bilan kimyoviy vositalar (titul, titul-duo) bilan ishlov berilishi kerak.

**Ekish usuli:** No`xat doni selkalarida qatororalarini keng 45-50 sm qilib ekiladi. Tog`li hududlarning lalmikor yerlarida qator oralari 50-60 sm bo`lib urug` selka g`altaginining ustidan tushirib ekiladi. Yirik donli no`xat urug`lari 5-6 sm chuqurlikda ekiladi. No`xat maysalari yagana qilinmaydi.

**Ekish meyori:** Adirlardagi lalmikor yerlarda mayda donli no`xat urug`i gektariga 50-55 kg, yirik donli no`xat o`rtacha 70-75 kg hattoki 90 kggacha ham ekiladi. Tog`lardagi va tog` etaklaridagi yog`in ko`proq yog`adigan lalmikor yerlarda yirik donli navlaridan 70-75 kg dan 90-100 kg gacha ekiladi.

**Ekinni parvarish qlish:** Qator oralari va o'simlik atrofini yumshatish hamda begona o`tlarni yo`qotishdan iborat. Qator oralari kultivator bilan, o'simliklar atrofi qo'l bilan yumshatiladi. O'simliklarda 3-4 barg paydo bo`lgach qatororalari kultivatsiya qilinadi. Kultivatsiya chuqurligi 10-15 sm chuqurligida haydaladi. No`xat gullah va meva tugish davrida kultivatsiya ishlari olib borilmaydi [4].

**Hosilni yig`ishtirish.** Hamma dukkaklilar to`liq pishgandan keyin no`xatni 5-10 kunda o`rib yig`ib olinadi. No`xat o'simligi chatnamaydi va tokilmaydi. Pishib yertilgan no`xat uzoq turib qolgandagina uning dukkaklari butunligicha to`kiladi. Yurtimizning tog`li hududlaridagi lalmikor yerlarda gektariga 8-12 s gacha hosil

beradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda “Lazzat”, “O’zbekiston-32”, “Yulduz”, “Mal’xotra”, “Halima” navlari ekilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizni lalmi va sug’oriladigan maydonlarda no’xatni navlarini to’g’ri tanlab ekish hamda agrotexnik tadbirlarni maqbul muddat va usullarda olib borilisi tuproq unumdorligini oshiradi, don yetishtirish ortadi, ichki bozorni oqsilli mahsulotlar bilan boyitadi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar::**

1. Atabayeva X. Qodirxo’jayev O. “O’simlikshunoslik T. Yangi asr avlodi, 2006
2. Atabeva X.N. O’simlikshunoslik. Toshkent. «Mehnat»-2000.
3. Vavilov P.P., Posponov.S. Boboyev kulturni problema telnogobelka. M.: «Rossel xozizdat»-1983.
4. Hamdamov H.I. va boshqalar. No’xat yetishtirishning ilmiy asoslari. Toshkent. «Fan»-2007.